

IQTISODIYOT YO‘NALISHIDAGI TALABALARDA INGLIZ TILIDA
SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY
ASOSLARI

Jaloliddinov Isomiddin

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

“Inglis tilli ” kafedraasi o‘qituvchisi

Obabakirova Nilufar

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda ingliz tilida og‘zaki nutq (speaking) ko‘nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Hozirgi globallashuv sharoitida ingliz tilining xalqaro iqtisodiy kommunikatsiyadagi o‘rni ortib borayotgani sababli, iqtisodchi mutaxassislar uchun ushbu tilni, ayniqsa, erkin muloqot darajasida egallash zarurati kuchaymoqda. Tadqiqot doirasida English for Specific Purposes [ESP] yondashuvi, kommunikativ til o‘qitish modeli hamda interaktiv metodlarning speaking ko‘nikmasini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Shuningdek, talabalar nutq faoliyatiga ta‘sir etuvchi lingvistik, pedagogik va psixologik omillar tahlil qilindi. O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, xususan biznes muzokaralari, prezentatsiyalar, “case study” va debatlar talabalar nutq kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish speaking ko‘nikmasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiyot yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda talabalarining professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyot, ingliz tili, speaking ko‘nikmasi, ESP, biznes kommunikatsiya, interaktiv metodlar, kommunikativ kompetensiya*

Abstract: *This article examines the theoretical foundations and practical approaches to developing speaking skills among students majoring in economics within the context of English language learning. In the era of globalization, English has become the dominant language of international economic communication, making oral proficiency an essential competence for future economists. The study focuses on the effectiveness of the English for Specific Purposes [ESP] approach, communicative language teaching, and interactive methods in enhancing students’ speaking abilities. In addition, linguistic, pedagogical, and psychological factors influencing students’ oral performance are analyzed based on relevant academic sources. The findings of the pedagogical experiment reveal that professionally oriented activities such as business negotiations, presentations, case studies, and debates significantly improve students’ speaking competence. Furthermore, creating a*

supportive learning environment and integrating modern information and communication technologies contribute positively to the development of oral communication skills. The results of this research provide practical and methodological implications for improving English language teaching in economics education and enhancing students' professional communicative competence.

Keywords: *economics, English language, speaking skills, ESP, business communication, interactive methods, communicative competence*

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida jahon iqtisodiy tizimining integratsiyalashuvi, xalqaro savdo hajmining ortishida hamda transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini bilishga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Ingliz tili bugungi kunda nafaqat ilm-fan va texnologiyalar, balki xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ham asosiy kommunikatsiya vositasiga aylangan. Xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda yirik korporatsiyalarda ish yuritish va muzokaralar asosan ingliz tilida olib boriladi. Bu esa iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini egallashni nafaqat qo'shimcha, balki zarur kasbiy kompetensiya sifatida belgilaydi. Zamonaviy iqtisodchi mutaxassis nafaqat iqtisodiy nazariyalarni bilishi, balki ularni xalqaro auditoriya oldida ingliz tilida asoslab bera olishi, tahliliy fikrlarini aniq va mantiqan ifodalashi lozim. Ayniqsa, speaking ko'nikmasi iqtisodiy faoliyatda – biznes muzokaralari, prezentatsiyalar, investitsion takliflar va xalqaro uchrashuvlarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunga qaramay, amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar ingliz tilidagi terminologiyani nazariy jihatdan bilgan holda, uni real nutq jarayonida qo'llashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat ko'pincha o'qitish jarayonida umumiy til kompetensiyasiga urg'u berilib, kasbiy kommunikatsiyaga yetarli e'tibor qaratilmayotgani bilan izohlanadi. Bundan tashqari, psixologik omillar – xususan, nutqiy ishonchsizlik, xatoga yo'l qo'yishdan qo'rquv hamda yetarli kommunikativ muhitning mavjud emasligi – speaking ko'nikmasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarda ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarda ingliz tilida speaking ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish hamda kasbiy yo'naltirilgan metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy tilni kasbiy maqsadlarda o'qitish [English for Specific Purposes – ESP] nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, bugungi kunda til o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu yondashuv o'quvchilarning aniq kasbiy ehtiyojlariga mos til o'rgatishni nazarda tutadi. Hutchinson va Waters [1987] ESP nazariyasini ishlab chiqishda til o'qitish jarayonini o'quvchining kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini asoslab bergan¹. Ularning fikricha, til o'rganish samaradorligi o'quv materialining real kasbiy vaziyatlarga yaqinligi bilan bevosita bog'liq.

Ayniqsa, iqtisodiyot yo‘nalishida bu yondashuv biznes kommunikatsiya, moliyaviy tahlil va muzokaralar kabi real faoliyatlarni modellashtirish orqali amalga oshiriladi. Ellis va Johnson [1994] Business Englishni o‘qitishda autentik materiallardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi². Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, real biznes hujjatlari, shartnomalar, hisobotlar va prezentatsiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning nafaqat til bilimini, balki kasbiy kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Harmer [2007] speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda interaktiv metodlarning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslab, o‘quvchilarni faol nutq jarayoniga jalb etish muhimligini ta’kidlaydi³. Uning fikricha, til o‘rganish passiv emas, balki faol kommunikativ jarayon bo‘lishi kerak. Ayniqsa, guruhli ishlar, rolli o‘yinlar va muhokamalar speaking ko‘nikmasini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Dudley-Evans [1998] esa ESP o‘qitish jarayonida kommunikativ vazifalar markaziy o‘rin tutishini qayd etadi⁴. Unga ko‘ra, til o‘rganish faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, ularni real kasbiy vaziyatlarda qo‘llash orqali mustahkamlanadi.

Shuningdek, Brown [2000] til o‘rganishda affektiv omillar – motivatsiya, o‘ziga ishonch va kommunikativ xavotir darajasi – muhim rol o‘ynashini ilmiy asoslab beradi⁵. Uning fikricha, ijobiy psixologik muhit yaratilgan taqdirda, o‘quvchilarning nutq faolligi sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va multimedia vositalarining speaking ko‘nikmasini rivojlantirishdagi roli alohida e’tirof etilmoqda. Ular yordamida talabalarga autentik til muhiti yaratiladi va real kommunikativ vaziyatlar simulyatsiya qilinadi. Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ESP yondashuvi, interaktiv metodlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash uyg‘un holda qo‘llanilishi zarur.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonini kompleks o‘rganish maqsadida integrativ metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlarni o‘z ichiga olib, bir nechta ilmiy metodlar uyg‘unligida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda nazariy tahlil metodi asosida xorijiy til o‘qitish metodikasi, xususan ESP [English for Specific Purposes] yondashuvi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o‘rganildi. Ushbu bosqichda iqtisodiy ingliz tili, kommunikativ kompetensiya va speaking ko‘nikmasining shakllanishiga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi [Hutchinson & Waters, 1987¹; Harmer, 2007²]. Ikkinchi bosqichda kuzatish metodi qo‘llanilib, iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar nutq faoliyati o‘quv jarayonida monitoring qilindi. Kuzatish davomida talabalar tomonidan iqtisodiy terminologiyani nutqda qo‘llash darajasi, nutq ravonligi, grammatik aniqlik va kommunikativ faollik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda pedagogik eksperiment metodi asosiy o‘rin tutdi. Eksperiment doirasida talabalar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi [an’anaviy metodlar asosida o‘qitildi], tajriba guruhi [ESP va interaktiv metodlar asosida o‘qitildi]. Tajriba guruhida quyidagi metodlar tizimli ravishda joriy etildi: biznes muzokaralari simulyatsiyasi [negotiation tasks]; iqtisodiy prezentatsiyalar [academic and business presentations]; “case study” usuli [iqtisodiy

muammolarni tahlil qilish]; guruhli muhokamalar va debatlar. To‘rtinchi bosqichda taqqoslash (komparativ) metodi yordamida nazorat va tajriba guruhlarining natijalari o‘zaro solishtirildi. Bu orqali qo‘llanilgan metodlarning samaradorlik darajasi aniqlab olindi [Richards, 2006³]. Beshinchi bosqichda esa statistik va analitik tahlil metodi asosida olingan ma‘lumotlar qayta ishlanib, umumlashtirildi. Natijalar asosida speaking ko‘nikmasining rivojlanish dinamikasi baholandi va ilmiy xulosalar chiqarildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta‘minlash bilan birga, iqtisodiy yo‘nalishdagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda kasbiy yo‘naltirilgan va interaktiv metodlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Avvalo, tajriba guruhida olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalar nutq faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, talabalar tomonidan iqtisodiy terminologiyani to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash darajasi oshdi, nutqning grammatik aniqligi va mantiqiy izchilligi yaxshilandi. Bu natijalar Ellis va Johnson [1994] tomonidan ilgari surilgan Business Englishni real kontekstda o‘qitish samaradorligi haqidagi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi¹. Ikkinchidan, biznes muzokaralari va debatlar jarayonida talabalar nutqiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Ular o‘z fikrlarini erkin ifodalash, qarama-qarshi fikrlarni asoslash va muloqot jarayonida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini egalladi. Bu holat Brown [2000] ta‘kidlagan affektiv omillarning ijobiy shakllanishi bilan izohlanadi². Uchinchidan, “case study” usulidan foydalanish talabalarni muammoli vaziyatlarda tahliliy fikrlashga va o‘z qarorlarini ingliz tilida asoslab berishga o‘rgatdi. Natijada talabalar nutqi nafaqat lingvistik, balki mantiqiy jihatdan ham rivojlandi. To‘rtinchidan, iqtisodiy prezentatsiyalar orqali talabalar akademik nutq uslubini egallab, murakkab iqtisodiy tushunchalarni ingliz tilida izohlash ko‘nikmasiga ega bo‘ldi. Bu esa ularning professional kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi.

Nazorat va tajriba guruhlarining natijalari taqqoslanganda, quyidagi farqlar aniqlandi: tajriba guruhida nutq ravonligi yuqoriroq darajada rivojlandi; kommunikativ faollik va ishtirok darajasi sezilarli oshdi; iqtisodiy terminologiyani qo‘llash ko‘rsatkichlari yaxshilandi; talabalar nutqiy ishonch va mustaqillik darajasi ortdi. Richards [2006] tomonidan ilgari surilgan kommunikativ yondashuv nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganish real muloqot jarayonida samarali shakllanadi³. Tadqiqot natijalari aynan ushbu nazariyani amaliy jihatdan tasdiqladi.

Shuningdek, mening kuzatuvlarimga asoslanib aytish mumkinki, talabalar aynan kasbiy faoliyatga yaqin vaziyatlarda [muzokara, biznes muhokama, prezentatsiya] faolroq ishtirok etadi. Bu esa ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va speaking ko‘nikmasining tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ESP yondashuvi, interaktiv metodlar va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligi eng samarali model hisoblanadi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari xorijiy til o‘qitish metodikasi doirasidagi mavjud nazariy yondashuvlar bilan uyg‘un holda tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda an’anaviy, grammatikaga asoslangan o‘qitish metodlari yetarli darajada samarali emas. Chunki bunday yondashuvlarda til asosan nazariy bilim sifatida o‘zlashtiriladi, real kommunikativ faoliyat esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Aksincha, kommunikativ va kasbiy yo‘naltirilgan [ESP] yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni faol nutq jarayoniga jalb etadi. Bu esa tilni real muloqot vositasi sifatida egallash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari Hutchinson va Waters tomonidan ilgari surilgan ESP konsepsiyasining amaliy samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, speaking ko‘nikmasining rivojlanishi faqat lingvistik omillar bilan emas, balki psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Talabalarda o‘ziga ishonch, nutqiy erkinlik va ijobiy motivatsiya mavjud bo‘lsa, ularning kommunikativ faolligi sezilarli darajada oshadi. Bu holat H. D. Brown tomonidan asoslab berilgan affektiv omillar nazariyasi bilan mos keladi. Bundan tashqari, biznesga oid real vaziyatlarning modellashtirilishi (muzokaralar, prezentatsiyalar, case study) talabalarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki kasbiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Mening kuzatuvlarimga ko‘ra, aynan iqtisodiy mazmundagi muhokamalar talabalar uchun qiziqarli bo‘lib, ular nutq faoliyatida faolroq ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlangan. Jumladan, barcha talabalar bir xil darajada faol ishtirok etmasligi, ayrim talabalar nutqiy ishonchsizlik sababli passiv qolishi kuzatildi. Bu esa o‘qituvchidan individual yondashuv va differensial metodlarni qo‘llashni talab etadi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda speaking ko‘nikmasini rivojlantirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda pedagogik, psixologik va kasbiy komponentlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Birinchidan, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu ko‘nikma kelajakdagi professional faoliyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, an’anaviy o‘qitish metodlari speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda yetarli samaradorlikni ta’minlamaydi. Kommunikativ va kasbiy yo‘naltirilgan [ESP] yondashuv esa talabalarning nutq kompetensiyasini shakllantirishda samaraliroq hisoblanadi. Uchinchidan, interaktiv metodlar – xususan, biznes muzokaralari, prezentatsiyalar, debatlar va “case study” usullari – talabalarning nutq faolligini oshiradi hamda ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi. To‘rtinchidan, speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. O‘ziga ishonch, motivatsiya va qulay o‘quv muhitining mavjudligi talabalarning nutq faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Beshinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish speaking ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

15-Aprel, 2026-yil

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida speaking ko‘nikmasini rivojlantirish uchun kommunikativ, interaktiv va kasbiy yo‘naltirilgan yondashuvlarni uyg‘un holda qo‘llash zarur. Kelgusida ushbu yo‘nalishda innovatsion metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hutchinson, T., Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. 4th edition. New York: Longman.
3. Harmer, J. (2007). How to Teach English. London: Longman.
4. Ellis, M., Johnson, C. (1994). Teaching Business English. Oxford: Oxford University Press.
5. Dudley-Evans, T., St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Goh, C. C. M., Burns, A. (2012). Teaching Speaking: A Holistic Approach. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press.